**TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA KAPITAL YETARLILIGI ASOSIDA INVESTITSION FAOLLIKNI KUCHAYTIRISHNING INTEGRATSION MODELII****AN INTEGRATION MODEL FOR STRENGTHENING INVESTMENT ACTIVITY BASED ON THE CAPITALIZATION AND CAPITAL ADEQUACY OF COMMERCIAL BANKS****¹Ortiqov Sidiqjon
Xolmurodovich**¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya
Abstract**

Uzb. - Maqolada tijorat banklarining kapitallashuv darajasi, kapital yetarliligi va investitsion faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan. Integratsion investitsion faollik modeli ishlab chiqilib, bank kapitali, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish tizimi va investitsion kreditlash jarayonlari yagona nazariy-amaliy mexanizmda birlashtirilgan. Kapital yetarliligini oshirish orqali banklarning investitsion faoliyati barqaror kengayishi isbotlangan. Shuningdek, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari ajratadigan kreditlar hajmini 30 foizga oshirishning zaruriyati asoslab berilgan.

Eng. - This article provides an in-depth analysis of the interrelationship between the capitalization level of commercial banks, capital adequacy, and investment activity. An integrated investment activity model is developed, combining bank capital, capital adequacy, risk management mechanisms, and long-term investment lending into a unified theoretical and practical framework. It is scientifically justified that strengthening capital adequacy significantly expands investment capacity and reduces financial vulnerability. Furthermore, the study demonstrates the necessity of increasing investment loans allocated by commercial banks by 30% to support structural transformations and modernization processes within the national economy.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ kapitallashuv, kapital yetarliligi, integratsion model, investitsion kreditlash, risklarni boshqarish, tarkibiy o'zgarishlar, investitsion faollik, Basel III.

❖ capitalization, capital adequacy, integrated investment model, investment lending, risk management, structural transformation, Basel III, financial stability.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichida tijorat banklari milliy iqtisodiyotning investitsion salohiyatini shakllantiruvchi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi strategik institut sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon

iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ishlab chiqarishning texnologik modernizatsiyasi, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining keng joriy etilishi hamda innovatsion faoliyatning jadallashuvi bank tizimining moliyaviy barqarorligi va investitsion imkoniyatlariga bo'lgan talabni

keskin oshirmoqda. Ayniqsa, real sektor korxonalarini uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish jarayonlarida tijorat banklarining kapital salohiyati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tijorat banklarining investitsion faolligi, avvalo, ularning kapitallashuv darajasi, kapital yetarliligi, likvidlik ko'rsatkichlari hamda risklarni boshqarish tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bank kapitalining yetarli darajada shakllanmaganligi moliyaviy vositachilik samaradorligini pasaytirib, iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsion oqimlar hajmining qisqarishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy tizimda multiplikativ o'sish mexanizmlarining zaiflashuvi, investitsion muhit jozibadorligining pasayishi hamda ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish sur'atlarining sekinlashuvi kuzatiladi [4].

Xususan, tijorat banklari kapital bazasining cheklanganligi quyidagi tizimli iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi:

- uzoq muddatli investitsion kreditlar hajmining qisqarishi va real sektorning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojining to'liq qondirilmashligi;

- banklarning kredit, foiz va likvidlik risklarini qoplash salohiyatining pasayishi;

- muammoli kreditlar ulushining ortishi natijasida kredit portfeli sifatining yomonlashuvi;

- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya va innovatsion transformatsiya jarayonlarining sustlashuvi;

- iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga investitsiyalar oqimining kamayishi;

- bank tizimining xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligining pasayishi [5].

Xalqaro bank amaliyotida, xususan, Basel Committee on Banking Supervision tomonidan

ishlab chiqilgan Basel III standartlariga muvofiq kapital yetarliligi bank tizimi barqarorligi va moliyaviy xavfsizligining fundamental mezoni sifatida e'tirof etiladi. Mazkur standartlar bank kapitalining riskka tortilgan aktivlarga nisbatan yetarlilik darajasini ta'minlash orqali banklarning moliyaviy shoklarga bardoshlilikini oshirish, tizimli risklarni kamaytirish hamda investitsion faoliyatni xavfsiz kengaytirishga xizmat qiladi. Kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining xalqaro me'yorlar asosida mustahkamlanishi tijorat banklariga yuqori riskli, ammo iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bank kapitalining barqaror o'sishi real sektorni kreditlash hajmini kengaytirish, iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilish hamda mamlakatning uzoq muddatli investitsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning muhim moliyaviy asosi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tijorat banklari kapitallashuvi hamda investitsion faolligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, mahalliy iqtisodchi olimlar tijorat banklari kapitalining yetarliligi investitsion faoliyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini alohida ta'kidlaydilar. Jumladan, Xamidov X. tijorat banklari kapitalining yetarli darajada shakllanishi investitsion loyihalarning moliyaviy xavfsizligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim poydevor ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, kapitallashuv darajasi past bo'lgan banklarda investitsion portfelning barqarorligi sustlashib, yuqori risk darajasi yuzaga keladi [1].

Shuningdek, Mamatqulov R. bank kapitali tuzilmasini optimallashtirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bilan bir qatorda investitsion kreditlash hajmining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan

asoslab bergan. Tadqiqotchining yondashuviga ko'ra, kapital tarkibining samarali shakllanishi banklarning uzoq muddatli investitsion resurslarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi [2]. Nazarov S. esa iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirishda tijorat banklari kreditlarining strategik ahamiyatini yoritib, ayniqsa investitsion va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatli moliyaviy resurslar taqchilligi mavjudligini ta'kidlaydi [3].

Xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham bank kapitalining investitsion faoliyatdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Xususan, Frederic Mishkin kapital yetarliligi banklarning risklarni qoplash salohiyatini oshirish bilan birga kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishini ilmiy jihatdan isbotlagan [4]. Shuningdek, Douglas Diamond va Raghuram Rajan bank kapitalining yetarli darajada shakllanishi uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni ta'minlashini ta'kidlaydilar [5]. Bundan tashqari, Ross Levine moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini aniqlab, investitsion kreditlash iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilish va institutsional islohotlarni jadallashtirishning muhim moliyaviy instrumenti ekanligini asoslab bergan [6].

Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va kapital yetarliligi investitsion faollikni kengaytirishning fundamental omili hisoblanadi. Bank kapitalining mustahkamligi investitsion kreditlash hajmini oshirish, risklarni samarali boshqarish, real sektorni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish uchun muhim institutsional asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot quyidagi asosiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

❖ Integratsion investitsion faollik modeli – kapitallashuv, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish va investitsion kreditlash bloklarini yagona tizimga birlashtiruvchi yangi konseptual model.

❖ Prudensial talablar tahlili – Basel III standartlari asosida kapital yetarliligi koeffitsientining investitsion salohiyatga ta'siri baholandi.

❖ Tarkibiy o'zgarishlar analizi – iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha investitsion talab va kredit yetishmovchiligi o'rganildi.

❖ Ssenariy modellashtirish – investitsion kreditlar hajmi 30% oshirilganda iqtisodiy o'sishning uchta ssenariysi (past, o'rta, yuqori) baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Banklarning investitsion faoliyatini samarali va kompleks baholash uchun alohida iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli hisoblanmaydi. Chunki tijorat banklarining investitsion salohiyati nafaqat ularning moliyaviy resurslari hajmiga, balki kapital barqarorligi, risklarni boshqarish sifati, likvidlilik darajasi hamda investitsion kreditlash mexanizmlarining samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy bank tizimida investitsion faoliyatni tahlil qilishda integratsion yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur integratsion model tijorat banklari kapitallashuvi, kapital yetarliligi, risk darajasi, likvidlilik holati va investitsion kreditlash ko'rsatkichlarini yagona tizim asosida o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Model orqali banklarning investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks ravishda tahlil qilinadi hamda investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi.

Shuningdek, ushbu yondashuv banklarning uzoq muddatli moliyaviy

barqarorligini ta'minlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytirish va kapital yetarliligini xalqaro standartlar asosida mustahkamlashga xizmat qiladi. Integratsion model bank faoliyatidagi

tavakkalchiliklarni kamaytirish, aktivlar sifati va daromadlilik ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali investitsion faollikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Integratsion investitsion faollik modeli

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va ularning investitsion faoliyatini kuchaytirish bo'yicha integratsion investitsion faollik modeli ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi va uning yaratilishi natijasida ishlab chiqilgan konsepsiya banklar

faoliyatida investitsion faollikni baholashning yangi indikatorlarini joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va iqtisodiy o'sish uchun uzluksiz moliyaviy manbalarni shakllantirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Model indikatorlarining tasniflanishi*

Blok	Ko'rsatkich	Amaliy funksiyasi
Kapitallashuv	Kapital/aktivlar	Moliyaviy barqarorlik bazasi
Kapital yetarliligi	Basel III koeffitsienti	Risklarni qoplash salohiyati
Risklarni boshqarish	Muammoli aktivlar darajasi	Kredit xavfini pasaytirish
Investitsion kreditlash	Uzun muddatli kreditlar ulushi	Modernizatsiya loyihalarini moliyalashtirish
Makroiqtisodiy ta'sir	O'sish koeffitsienti	Milliy iqtisodiyotga ta'siri

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Modelning yangiligi shundaki, u investitsion faollikni faqat kredit hajmi orqali emas, balki bankning ichki moliyaviy

barqarorlik mexanizmlari orqali ham baholash imkonini beradi.

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.


Kapital yetarliligi bankning moliyaviy poydevori bo'lib, uning yuqori bo'lishi ko'p omilli ta'sirga ega (2-rasm):

- kredit riski pasayadi;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirish quvvati ortadi;

- kredit portfelining sifati yaxshilanadi;

- uzoq muddatli moliyalashtirish salohiyati kengayadi.



2-rasm. Moliyaviy barqarorlik va tarkibiy o'sish mexanizmi²

Tijorat banklarining kapital yetarliligi darajasini oshirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsion faoliyatini kengaytirib borish muhim hisoblanadi. Buning natijasida, tijorat

banklarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, ularning risklarni qoplash salohiyati ortadi hamda kapital yetarliligi bo'yicha prudensial me'yorlar to'liq ta'minlanadi (2-jadval).

2-jadval

Kapital yetarliligi darajasiga ko'ra investitsion salohiyat*

Kapital darajasi	Investitsion salohiyat	Barqarorlik	Risk
Past	Ceklangan	Zaif	Yuqori
O'rta	Barqaror	Qoniqarli	O'rta
Yuqori	Keng	Mustahkam	Past

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Diamond & Rajan kabi iqtisodchi olimlarning iqtisodiy qarashlarida ham kapitalning yetarli bo'lishi kreditlar tarkibining uzoq muddatli bo'lishini ta'minlab, investitsion oqimlarni barqarorlashtirishi aks ettirib o'tilgan [5].

Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklariga ajratiladigan kreditlar hajmini 30 foizga oshirish lozim deb hisoblaymiz va bu aynan

nega 30 foizlik ko'rsatkichni qamrab olishi kerakligi quyidagilar orqali asoslanadi. Bularga:

1. Tarkibiy modernizatsiya talabi yuqori;
2. Sanoat, energetika va IT sektorda investitsiya yetishmovchiligi mavjud;
3. Banklar kredit portfelida investitsion kreditlar ulushi past;
4. Modernizatsiya loyihalari uzoq muddatli moliya talab qiladi.

²Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.



3-rasm. Kreditlar 30 foiz oshirilganda iqtisodiy ta'sir zanjiri³

Ushbu tadqiqot natijalarida taklif etilayotgan ko'rsatkichning amaliyotga tadbiiq etish natijasida iqtisodiyotning tarkibiiy jihatdan muvozanatli rivojlanishi ta'minlanadi,

ustuvor tarmoqlar va innovatsion yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengayadi(3-jadval).

3-jadval

Tarkibiiy o'zgarish loyihalariga kreditlash yo'nalishlari*

Tarmoq	Kredit turi	Kutiladigan ta'sir
Metallurgiya	Investitsion kredit	Modernizatsiya
Energetika	Infrastruktura krediti	Barqaror energiya
IT sektori	Uzoq muddatli kredit	Innovatsiyalar
Qishloq xo'jaligi	Texnika yangilash krediti	Samaradorlik

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlantmasi.

Iqtisodchi olim Levin R. tarmoqlar bo'yicha investitsion oqimlarning o'sishi iqtisodiyotning strukturaviy holatini tubdan o'zgartirishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6]. Uning ta'kidlashicha, investitsiyalar oqimining ustuvor sohalarga yo'naltirilishi ishlab chiqarish hajmlarining kengayishiga, yangi texnologiyalar joriy etilishiga hamda iqtisodiy resurslarning samarali qayta taqsimlanishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarning ulushi ortib, tarkibiiy modernizatsiya jarayoni jadallashadi.

Shuningdek, Levin R. investitsion faollikning ortishi moliyaviy bozorlar rivojlanishini rag'batlantirishi, bank tizimining kapitallashuv darajasini kuchaytirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam

moliyaviy asos yaratishini qayd etadi. Ayniqsa, investitsion resurslarning sanoat, infratuzilma va innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirilishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarning kapitallashuv darajasi ularning investitsion faoliyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kapital yetarliligining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, xavfsiz va samarali investitsion kreditlar ajratish imkoniyatini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, integratsion investitsion faollik modeli bank faoliyatini tizimli baholash va

³Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlantmasi.

uning rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, banklar tomonidan kreditlash hajmining, xususan 30 foizga o'sishi iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Investitsion kreditlar real sektorning texnologik yangilanishi va fan-

texnika salohiyatining oshishiga xizmat qilib, iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yaxshilanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, bank tizimidagi innovatsion yondashuvlar va islohotlar uning rivojlanishi uchun strategik asos yaratadi hamda moliyaviy sektorning raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamidov X. *Tijorat banklari kapitallashuvi va kredit siyosati*. – Toshkent, 2021.
2. Mamatqulov R. *Bank kapitali tuzilmasi va investitsion faoliyat*. – Toshkent, 2020.
3. Nazarov S. *Tarkibiy o'zgarishlar va moliya tizimi*. – Toshkent, 2019.
4. Mishkin F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – New York, 2018.
5. Diamond D., Rajan R. *Liquidity Risk and Financial Fragility*. – *Journal of Finance*, 2001.
6. Levin R. *Finance and Economic Growth*. – Cambridge University Press, 2016.